

Mavzu:Poya haqida umumiy tushunchaNovda va unga xos belgilar.

Darsning texnologik xaritasi.

Darsning maqsad va vazifalari	1.Ta'limiy maqsad: O`quvchilarni poya va novdaning tuzilishidagi o`ziga xos xususiyatlari,vegetativ va generativ novda bilan tanishtirish. 2.Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarga ekologik tarbiya berish. <b>3.Rivojlantiruvchi maqsad:</b> O`quvchilardagi mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan boyitish. 4.Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:</b> O`quvchilarni bog`bonchilik,agronomiya kasblariga yo`naltirish.	
Darsning shiori:	Tabiatni asirash burching, ham baxting, unda gullab yashnar hayot darxtning	
Darsning mazmuni	O`qituvchi bugungi darsda poya va novda haqida tushuncha,bo`g`im va bo`g`im oralig`I va novdalarning turlariga to`xtalib o`tadi.	
O`quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	1.Shakli: aralash,suxbat,munozara 2.Metod: 1.Blits so`rov 2.Klaster 3.So`z ichida so`z o`yini 4.Domini o`yini 5.Biologik mashq 6.Test 7.Boshqotirma 8.Venn diagrammasi <b>3.Dars jixozi:</b> Yovvoyi,madaniy o`simliklar,gerbariy jamlanmalari,vegetativ va generativ novdalar aks ettirilgan jadvallar,kodoskop,ekran,slayd. 4.Baholash: Reyting tizimda	
Kutiladigan natijalar	O`qituvshi :</b> O`quvchilarning bilim samaradorligini oshirish,shu yo`nalishdagi bilimlarini rivojlantirish.	O`quvchi:</b> Yangi bilimlarni o`zlashtirish,mavzuga oid o`zini qiziqtirgan yo`nalishlar asosida yangi ma'lumotlar to`plash.

Darsning texnologik bosqichlari

№	Dars bosqichlari	Vaqt	O`qituvchi	O`quvchi
1.	Tashkiliy qism	3	1.Sinf o`quvchilarini darsga tayyorlash 2.Salomlashish 3.Davomatni tekshiradi	1.Darsga tayyorlanadi
2.	O`tilgan mavzunu so`rash va xulosalash	12	O`qituvchi o`tilgan mavzuni quyidagi metodlar asosida so`raladi: 1-nazorat turi : (blits so`rov) 2-nazorat turi: “Klaster” 3-nazorat turi: ”So`z ichida so`z o`yini” 4-nazorat turi : “Domino”o`yini O`qituvchi o`tilgan mavzuni xulosalaydi va yangi mavzuni e`lon qiladi.	Berilgan nazorat topshiriqlar(1-2-3-4) ni bajaradilar.
3.	Yangi mavzu Bayoni	15	Yangi mavzuning maqsad va vazifalari bilan o`quvchilarni tanishtiradilar.Yangi mavzu rejasini doskaga yozadi va shu reja asosida kichik ma`ruza`savol-javoblar asosida mavzuni tushuntiradi	Faol ishtirokchi sifatida yangi mavzuni o`zlashtiradi.
4.	Yangi mavzuni mustaxkamlash	12	Yangi mavzuni mustaxkamlashda o`qituvchi quyidagi metodlardan foydalanadi : 5-nazorat turi : “Biologik mashq” 6.-nazorat turi : “Test” 7.-nazorat turi : “Boshqotirma” 8-nazorat turi:	5-6-7-8-nazorat turlarini bajaradilar

			“Venn diagrammasi”	
5.	Darsni yakunlash	3	1.O`qituvchi darsni xulosalaydi 2.Uy vazifasini beradi 3.Ballarni izohli e`lon qiladi.	Kundaliklariga uy vazifasini yozib oladi,ballarini kundaliklariga qo`ydiradi

2-Bosqich.O`tilgan mavzunu so`rash va xulosalash.

1-nazorat topshirig`i “Blits-so`rov”

O`qituvchi tarqatmasi

- 1.O`simlik poydevori - ildiz
- 2.Ildizi 30m chuqurlikka kirib boradigan o`simlik - yantoq
- 3.Idizga xos muhim xususiyatlardan biri - barg hosil qilmaydi
- 4.Vegetativ ko`payish organi - ildiz
- 5.Ildiz uchini nima o`rab turadi - ildiz qinchasi
- 6.Ildiz tukchalari necha kun yashaydi - 10-20 kun
- 7.Ildizsiz o`simlik - suv qaroqchisi
- 8.Qarag`ay daraxti necha yil umr ko`radi - 500yil
- 9.Ildiz qismlari - bo`linuvchi,o`suvchi,so`ruvchi,o`tkazuvchi
- 10.G`o`za nihollarining ildizi bir kecha-kunduzda necha sm o`sadi - 2-3sm


O`quvchi tarqatmasi

- 1.O`simlik poydevori -
- 2.Ildizi 30m chuqurlikka kirib boradigan o`simlik -
- 3.Idizga xos muhim xususiyatlardan biri -
- 4.Vegetativ ko`payish organi -
- 5.Ildiz uchini nima o`rab turadi -
- 6.Ildiz tukchalari necha kun yashaydi -
- 7.Ildizsiz o`simlik -
- 8.Qarag`ay daraxti necha yil umr ko`radi -
- 9.Ildiz qismlari -
- 10.G`o`za nihollarining ildizi bir kecha-kunduzda necha sm o`sadi -


2-nazorat topshirig'i.

“Klaster”

O`qituvchi tarqatmasi.



O`quvchi tarqatmasi.



3-nazorat topshirig'i: Soʻz ichida soʻz oʻyini

Oʻqituvchi tarqatmasi.

Hosildorlik: Hosil, hos, os, osil, sil, il, do, dor, or

Oʻquvchi tarqatmasi : Hosildorlik

4 - nazorat topshirig'i: Domino oʻyini.

Oʻqituvchi tarqatmasi.

	Oʻgʻit tarkibida qanday moddalar boʻladi.?
--	--

1

Mineral tuzlar Mikroelementlar va boshqalar	Oʻsimliklar tuproqdan oʻzi uchun kerakli nimalarni oladi
---	--

2

Tuzlarni	Agar oʻsimliklarga zarur mineral tuzlar yetishmasa, ularda qanday oʻzgarishlar sodir boʻladi?
----------	---

3

Ichki va tashqi oʻzgarishlar sodir boʻladi.	Tuproqda chirib uning holatini yaxshilaydi va hosildorligini oshiradigan oʻgʻit?
---	--

4

Goʻng	Kimyo zavodlarida maxsus tayyorlanadigan oʻgʻitlar?
-------	---

5

Mineral oʻgʻitlar	Oʻzbekistonda mineral oʻgʻitlar ishlab chiqaradigan zavodlar?
-------------------	---

6

Navoiy Chirchiq	Mineral o`g`itlarning Xillari
--------------------	-------------------------------------

8

Azotli Fosforli Kaliyli	Qaysi o`g`itlar o`simliklarning Oo`shini tezlashtiradi?
-------------------------------	--

7

Azotli	Qaysi o`g`itlar o`simliklarning Mo`l hosil to`planishiga va uning tez pishib yetilishiga yordam beradi?
--------	---

9

Fosforli Kaliyli	Agar tuproqda mineral o`g`itlar me`yorida ortiqcha solinsa,uning nimasi yomonlashadi
---------------------	---

10

Ekologik holati	Me`oridan ortiqcha solingan o`g`it tuproqdagi tirik mavjudodlarga qanday ta`sir ko`rsatadi?
-----------------	---

11

Salbiy ta`sir ko`rsatadi uning tarkibini buzadi	
---	--

12

O`quvchi tarqatmasi.

Mineral o`g`itlar	O`zbekistonda mineral o`g`it- lar ishlab chiqaradigan zavodlar?
----------------------	---

Ekologik holati	Me`oridan ortiqcha solingan o`g`it tuproqdagi tirik mavjudodlarga qanday ta`sir ko`rsatadi?
-----------------	---

Tuzlarni	Agar o`simlik- larga zarur mi- neral tuzlar yetishmasa, ularda qanday o`zgarishlar sodir bo`ladi?
----------	---

Azotli	Qaysi o`g`itlar o`simliklarning Mo`l hosil to`planishiga va uning tez pishib yetilishiga yordam beradi?
--------	---

Navoiy Chirchiq	Mineral o`g`itlarning xillari
--------------------	-------------------------------------

	O`g`it tarkibida qanday moddalar bo`ladi.?
--	---

Go`ng	Kimyo zavod- larida maxsus tayyorlanadigan o`g`itlar?
-------	--

Azotli Fosforli Kaliyli	Qaysi o`g`itlar o`simliklarning Oo`sishini tezlashtiradi?
-------------------------------	--

Ichki va tashqi o`zgarishlar sodir bo`ladi.	Tuproqda chirib uning holatini yaxshilaydi va hosildorligini oshiradigan o`g`it?
---	--

Salbiy ta'sir ko'rsatadi uning tarkibini buzadi	
---	--

Mineral tuzlar Mikroelement- lar va boshqa- lar	O`simliklar tuproqdan o`zi uchun kerakli nimalarni oladi	Fosforli Kaliyli	Agar tuproqda mineral o`g`itlar me`yoridan ortiqcha solinsa,uning nimasi yomonlashadi
--	--	---------------------	--

3-bosqich:Yangu mavzu bayoni:

Reja :

- 1.Poya va novda haqida tushuncha
- 2.Bo`g`im va bo`g`im oralig`i
- 3.Novdalarning turlari

Poya- o`simlikning barcha yer usti organlarini o`zaro bog`lab,ularni ildiz bilan birlashtirib turadigan markaziy tayanch organi.U ildiz bilan burglar orasidagi moddalarning harakatini ta`minlaydi va o`zida ozid moddalar to`playdi.

Poyaning shakllanishi,bajaradigan vazifasi bir xil bo`lsada,daraxt poyasi,odatda tana,barcha o`tlarniki esa poya deb ataladi va ular,ayniqsa,ichki tuzilishi bilan farq qiladi

Novda bilan poya tushunchasi bir-biriga juda o`xshab ketadi.

Novda – daraxt,buta va yarimbutalarning o`zida kurtak va barg hosil qiladigan bir yillik shoxi.Novdalarning po`sti yashil va nafis bo`lib,hujayralarida yashil rang beruvchi xlorofill donachalari bor.Novdalarda burglar birikkan joy bo`g`im,ikkita barg oralig`idagi qismi bo`g`im oralig`i deb ataladi.Barglar qo`ltig`ida bittadan yoki bir nechtdan bo`lib kurtak joylashadi.

Kuz yaqinlashishi bilan novdalarning yashil rangi o`zgarib,qo`ng`ir va qizg`ish rangga kiradi.Chunki bu vaqtda ularning po`sti qalinlashadi va ostida po`kak qavat hosil bo`ladi.Kech kuzda burglar to`kilib ketib,ular qo`ltig`ida joylashgan kurtaklar ochilib qoladi va shu holda qishlaydi.

Novdalar ikki xil bo`ladi.Agar novda barg va kurtaklardan iborat bo`lsa vegetativ novda deyiladi.Bordi-yu,novdadan gul paydo bo`lsa generativ yoki gulli novda deyiladi.

Demak,barg va kurtaklari bo`lgan daraxt va butalarning bir yillik novdasi yoki urug`idan unib chiqqan bir yillik niholga ham novda deyiladi.

4-bosqich:Yangi mavzuni mustaxkamlash:

Yangi mavzu 5-6-7-8 nazorat topshiriqlari asosida mustaxkamlanadi.

5-nazorat topshirig`i: Biologik mashq

O`qituvchi tarqatmasi :

1. **Novda** – daraxt, buta va yarimbutalarning oʻzida kurtak va barg hosil qiladigan bir yillik shoxi.
2. Novdalarda barg birikkan joy **boʻgʻim** deyiladi.
3. Ikki barg oraligʻidagi qismi **boʻgʻim oraligʻi** deb ataladi.
4. Barglar qoʻltigʻida bittadan yoki bir nechtdan boʻlib **kurtak** joylashadi.
5. Kuz yaqinlashish bilan novdalarning yashil rangi oʻzgarib, **qoʻngʻir** va **qizgʻish** rangga kiradi.
6. Chunki bu vaqtda ularning poʻsti qalinlashadi va ostida **poʻkak** qavat hosil boʻladi.
7. Novdalar **ikki** xil boʻladi.
8. Agar novda barg va kurtaklardan iborat boʻlsa **vegetativ novda** deyiladi.

Oʻquvchi tarqatmasi:

1.– daraxt, buta va yarimbutalarning oʻzida kurtak va barg hosil qiladigan bir yillik shoxi.
2. Novdalarda barg birikkan joy deyiladi.
3. Ikki barg oraligʻidagi qismi deb ataladi.
4. Barglar qoʻltigʻida bittadan yoki bir nechtdan boʻlib joylashadi.
5. Kuz yaqinlashish bilan novdalarning yashil rangi oʻzgarib, va rangga kiradi.
6. Chunki bu vaqtda ularning poʻsti qalinlashadi va ostida qavat hosil boʻladi.
7. Novdalar xil boʻladi.
8. Agar novda barg va kurtaklardan iborat boʻlsa deyiladi.

6-nazorat topshirigʻi: Test

Oʻqituvchi tarqatmasi.

1. Tuzilishiga koʻra, poyalar qanday guruxlarga ajratiladi?
A) 1 B) 2 S) 3 D) 4
2. Yogʻoch poyali oʻsimlikni belgilang?
A) terak, qayragʻoch B) Terak, bugʻdoy S) olma, sebarga D) saksovul, mosh
3. Tik oʻsuvchi poyalarga misol keltiring?
A) olma, sebarga B) bugʻdoy, karnaygul S) ituzum, bugʻdoy D) olma, gʻozpanja
4. Eng uzun poyani belgilang?
A) piyoz B) mirzaterak S) yongʻoq D) jiyda
5. Novdalar necha xil boʻladi?
A) 1 B) 2 S) 3 D) 4
6. Novdada barglar birikkan joy nima deyiladi?
A) boʻgʻim oraligʻi B) poya S) boʻgʻim D) tana
7. Erta bahorda birinchi boʻlib qaysi daraxt va butalar gullaydi?
A) Terak, bodom B) olma, jiyda S) oʻrik, bodom D) olxoʻri, qayragʻoch
8. Novdadan gul paydo boʻlsa, u qanday novda deyiladi?
A) vegetativ novda B) generativ novda S) kurtak D) tana

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob	B	A	S	B	B	S	S	B

O`quvchi tarqatmasi.

1. Tuzilishiga ko`ra, poyalar qanday guruxlarga ajratiladi?

A) 1 B) 2 S) 3 4) 4

2. Yog`och poyali o`simlikni belgilang?

A) terak, qayrag`och B) Terak, bug`doy S) olma, sebarga D) saksovul, mosh

3. Tik o`suvchi poyalarga misol keltiring?

A) olma, sebarga B) bug`doy, karnaygul S) ituzum, bug`doy D) olma, g`ozpanja

4. Eng uzun poyani belgilang?

A) piyoz B) mirzaterak S) yong`oq D) jiyda

5. Novdalar necha xil bo`ladi?

A) 1 B) 2 S) 3 D) 4

6. Novdada barglar birikkan joy nima deyiladi?

A) bo`g`im oralig`i B) poya S) bo`g`im D) tana

7. Erta bahorda birinchi bo`lib qaysi daraxt va butalar gullaydi?

A) Terak, bodom B) olma, jiyda S) o`rik, bodom D) olxo`ri, qayrag`och

8. Novddan gul paydo bo`lsa, u qanday novda deyiladi?

A) vegetativ novda B) generativ novda S) kurtak D) tana

7-nazorat topshirig`i: Boshqotirma

O`qituvchi tarqatmasi

	B	O	T	A	N	I	K	A	
		CH	I	N	O	R			
			L	A	V	L	A	G	I
	P	O	M	I	D	O	R		
T	O`	Q	I	M	A				

1. O`simliklar haqidagi fan?

2. 800 yil umr ko`radigan daraxt?

3. Ovqatga islatiladigan ildiz meva?

4. Hayotiy shakliga ko`ra bir yillik madaniy o`simlik?

5. 1682 yil ingliz tabiatshunosi N. Gryu fanga qanday tushunchani kiritgan?

O`quvchi tarqatmasi

				N			
				O			
				V			
				D			
				A			

1. O`simliklar haqidagi fan?

2. 800 yil umr ko`radigan daraxt?

3. Ovqatga islatiladigan ildiz meva?

4. Hayotiy shakliga ko`ra bir yillik madaniy o`simlik?


5. 1682 yil ingliz tabiatshunosi N. Gryu fanga qanday tushunchani kiritgan?

8-nazorat topshirig'i: Venn diagrammasi

O'qituvchi tarqatmasi

Ildiz

Poya



O'quvchi tarqatmasi

Ildiz

Poya

